
"SO'NGGI QO'NG'IROQ" TADBIRI CHEKKA HUDUDLARDA HAM KATTA TANTANAGA AYLANIB KETDI



"SO'NGGI QO'NG'IROQ" TADBIRI CHEKKA HUDUDLARDA HAM KATTA TANTANAGA AYLANIB KETDI

"So'nggi qo'ng'iroq" tadbiri maktab bitiruvchilarga nurli kelajak sari berilgan yo'llanma sifatida baholanadi. Bugun So'x tumani ta'lim muassasalarida ham ushbu tadbir ko'tarinki kayfiyat bilan o'tkazildi va barchaga birdek quvonch bag'ishladi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Tuman hokimligi tomonidan birlashtirilgan vakillar ishtirokidagi tadbirlar ham ko'ratinkilik bilan o'tkazildi. 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan tadbirda Xalq deputatlari So'x tumani Kengashi deputati, "Mahalla" xayriya jamoat fondi raisi Rasuljo Mirsaidov ishtirok etdi.

Maktab bitiruvchilariga tadbir boshida Prezidentimizning mamlakatimiz maktablarining bitiruvchilariga yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi. Tadbir davomida pedagogik faoliyatida o'rnak bo'lgan o'qituvchilar va faol, fan olimpiadalari, kitobxonlik tanlovlarida g'olib bo'lgan o'quvchilar va bitiruvchilarga tuman hokimligi va maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari taqdim etildi. Tadbir ro'hidan bahramand bo'lgan o'quvchilar ham o'zlarining dil so'zlarini bayon etdilar.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-25 16:40:53